



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 19-mart

128-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PF–27-son Farmoni ijrosi haqida”gi 130-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

Mamlakatimizda statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini ilg‘or xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida barcha subyektlarni haqqoniy va sifatli statistik ma‘lumotlar bilan ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PF–27-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martdagi 130-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martdagi 130-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PF–27-son Farmoni bilan:

Statistika ishlari samaradorligini yanada oshirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilanligi:

(a) makroiqtisodiyot va tarmoqlar darajasida statistik kuzatuv o‘tkazish tizimini hamda ularning metodologiyasini xalqaro standart va tavsiyalarga muvofiq takomillashtirib borish;

(b) integratsiya jarayonlarini kengaytirish orqali statistik hisobotlarni qisqartirish va biznesga hisobot topshirish yukini kamaytirib borish;

(v) “mahalladan — respublikagacha” tamoyili bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish tizimini yaratish orqali ma‘lumotlarning ishonchliligini ta‘minlash;

(g) xorijiy statistika organlari hamda sohaga oid xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, ular yordamida kadrlar salohiyatini oshirish;

(d) aholi, tadbirkorlik subyektlari va davlat organlari ehtiyojidan kelib chiqib yangi statistik mahsulot va xizmatlarni joriy etishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi sifatida qayta tashkil etilganligi;

Statistika ishlarini tashkil etish tizimini yaratishga ko‘maklashish hamda rasmiy statistikani tayyorlovchilarning sohaga oid faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida Respublika statistika kengashi tashkil etilganligi hamda uning tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha, Respublika statistika kengashi rasmiy statistikani yuritish tizimini rivojlantirish, muvofiqlashtirish va faoliyat ko‘rsatishiga oid masalalar bo‘yicha kollegial maslahat organi hisoblanishi;

Milliy statistika qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil yakuniga qadar “Hududlar statistikasi” axborot tizimini ishga tushirish hamda unda quyidagi natijadorlik ko‘rsatkichlarini viloyat, tuman (shahar)lar kesimida aks ettirish haqidagi takliflari ma‘qullanganligi:

(a) tadbirkorlik subyektlarining faolligi va iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalar, yangi ish o‘rinlari, aholi bandligi va daromadlari, soliq va budjetga tushumlar, sanoat, servis va eksport;

(b) ishga tushirilgan yangi energiya quvvatlari, iqtisodiyotda energiya tejamkorligi, yoqilg‘i resurslaridan samarali foydalanilishi hamda energiya tizimi barqarorligi, shuningdek, iste‘molida yashil energiya ulushi;

(v) hududlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy dasturlar bo‘yicha aholi daromadi, kambag‘allik darajasi, bandlik va ishsizlik bo‘yicha ko‘rsatkichlar qiyosiyiligini ta‘minlashi;

Milliy statistika qo‘mitasi hamda vazirlik va idoralarning axborot tizimlarini o‘zaro integratsiya qilish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi; Milliy statistika qo‘mitasi hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot tizimlarini o‘zaro integratsiya qilish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha ishchi guruh 3-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilganligi;

Statistika ishlari samaradorligini oshirish maqsadida:

(a) 4-ilovada keltirilgan davlat organlari va tashkilotlarining markaziy apparatlaridagi tahliliy bo‘linmalar zimmasiga statistik va ma‘muriy ma‘lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va e‘lon qilish vazifalari yuklatilganligi;

(b) Milliy statistika qo‘mitasi Jahon banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan “O‘zbekistonda statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash” loyihasi doirasida davlat organlari va tashkilotlarining statistik va ma‘muriy ma‘lumotlarni shakllantirishga mas‘ul bo‘linmalar xodimlarining malakasini oshirish choralarini ko‘rib borishi;

Aholi va keng jamoatchilikni dolzarb va ishonchli statistik ma‘lumotlar va tahlillar bilan ta‘minlab borish maqsadida:

(a) Milliy statistika qo‘mitasi tuzilmasida mavjud shtat birliklari doirasida media markaz tashkil etilishi;

(b) Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yilga mo‘ljallangan axborot siyosatini yuritish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

(v) Respublika statistika kengashi kelgusi yildan boshlab axborot siyosatini yuritish bo‘yicha chora-tadbirlarning yillik dasturini tasdiqlab borishi;

belgilanishicha:

(a) davlat organlari va tashkilotlarida islohotlar natijadorligini baholash bo‘yicha Milliy statistika qo‘mitasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuziladigan shartnoma asosida joylarda tanlanma kuzatuvlarni o‘tkazib borish amaliyoti joriy etiladi;

bunda, tanlanma kuzatuvlarning yillik rejasi Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan statistika dasturi doirasida tasdiqlanadi;

(b) barcha darajadagi statistika organlarining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunga asosan olib boradigan faoliyatiga, shu jumladan, statistik kuzatuvlarni o‘tkazish, statistik ma‘lumotlarni tayyorlash va ularni e‘lon qilish jarayonlariga har qanday ta‘sir ko‘rsatishga yo‘l qo‘yilmasligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 6-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari 7-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Statistika bo‘limi (J.Otaboyev) manfaatdor idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PF–27-son Farmoni talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov